

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'lifni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lif olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari .....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lif jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lif jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lif olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lif jarayonida mobil ta'larning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'rada zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**NOTIQLIK VA VATANPARVARLIK UYG'UNLIGINING LINGVOKULTUROPEDAGOGIK TADQIQI**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ГАРМОНИИ КРАСНОРЕЧИЯ И ПАТРИОТИЗМА**

**LINGUOCULTURAL PEDAGOGICAL RESEARCH OF ELOQUENCE AND PATRIOTISM HARMONY**

**Sherozbek Mo'minov<sup>1</sup>, Tavakkaljon Mo'minov<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>**Sherozbek Mo'minov,**

<sup>2</sup>**Tavakkaljon Mo'minov**

– Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktoranti.

– Farg'ona davlat universiteti, magistratura bo'limi, CHHT yo'naliishi magistranti

**Annotasiya**

*Insonni inson qilib turadigan, uni hayvonot olamidan farqlab turadigan eng birinchi belgi – bu, uning so'zi, so'zlash, notiqlik qobiliyatiga ega ekanligi. Aynan mana shu mo'jiza tufayli inson o'zidagi tuyg'u, fikrni boshqalarga yetkazadi. Yoshlarda noyob insoniy fazilatlardan biri bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishda ham notiqlikdan qulayroq vosita yo'q. Maqolada aynan mana shu – notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligi mavzusi lingvokulturopedagogik aspektida tahviliga tortilgan.*

**Аннотация**

Первым признаком, который делает человека человеком и отличает его от животного является наличие у него способности произносить слово, говорить и обладание красноречием. Именно благодаря этому чуду человек передает свои чувства и мысли другим. Нет более удобного средства для формирования и развития у молодежи чувства патриотизма – одного из ценных человеческих качеств, чем красноречие. В представленной статье в лингвокультуропедагогическом аспекте исследуется именно эта тема – тема гармонии красноречия и патриотизма.

**Abstract**

*The first sign that makes a person a person and distinguishes him from the animal world is that he has the ability to speak. It is because of this miracle that a person conveys his feelings and thoughts to others. There is no more convenient tool for forming and developing the feeling of patriotism, which is one of the unique human qualities, than public speaking. In the article the theme of eloquence and patriotism is analyzed in the linguistic-cultural-pedagogical aspect.*

**Kalit so'zlar:** inson, nutq, so'z, vatanparvarlik, uyg'unlik, tuyg'u, tarbiya, fazilat, qobiliyat, pedagogika.

**Ключевые слова:** человек, речь, слово, патриотизм, гармония, чувство, воспитание, положительное качество, способность, педагогика.

**Key words:** human, speech, word, patriotism, harmony, emotion, upbringing, virtue, ability, pedagogy.

**KIRISH**

O'zbek tiliga arab tilidan o'tib o'zlashgan bo'lib, so'zlovchi, gapiruvchi, fikrlovchi, diktor [6, 63] ma'nolarini anglatadigan notiq va bu sohaning nomi bo'lgan notiqlik eng qadimgi san'at turlari biridir. Buning asosiy boisi shundaki, "Avvalu oxiring'a solg'il ko'z, Bil, ham avval so'zu, ham oxir so'z" yoki "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin" (Alisher Navoiy). Ya'ni, dunyoning boshi ham, oxiri ham so'zdir. So'z insonni hayvondan farqlovchi tengsiz mo'jiza bo'lib, olamda bundan sharafliroq narsa yo'qdir. Shu boisdan ham odamlar qadimdan nutqqa, jumladan, notiqlik san'atiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Jumladan, qaimgi Rimda notiqning so'zi nihoyatda qadrlangan. Miloddan oldingi asrda yashagan Mark Tulliy Sitseron o'z zamondoshlarining notiqlarga xuddi xudoga qaraganday e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'lishganini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, dunyoda odamlarning ikki toifasi baland darajadagi hurmat va ehtiromga sazovordir. Bularning biri lashkarboshilar, ikkinchisi esa notiqlardir [1,16].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Jamiyat taraqqiy etgan sari, nutq, madaniyat va notiqlik san'ati ham rivojlanib, takomillashib borgan. Soha mutaxassislaridan biri S.Inomxo'jayev o'zining "Notiqlik san'ati asoslari" nomli kitobida notiqlik san'atini muayyan tur va ichki ko'rinishlarga ajratib, har biriga alohida izohlar beradi. Masalan, olim siyosiy-ijtimoiy notiqlik turinining 9 ta ichki nutqiy ko'rinishlarni sanab o'tadi. Harbiy vatanparvarlik nutqi ham siyosiy-ijtimoiy notiqlikning alohida bir ko'rinishi sifatida beriladi [2, 10-11].

Bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz dunyoqarashini shakllantirish va o'stirishda, jumladan, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda notiqlik san'atining roli beqiyosdir. Bu haqda ulug' allomala bobokalonlarimiz juda ibratlari fikrlarni bayon etganlar. Jumladan, Mavlono Jaloliddin Rumiy hazratlari ta'kidlagandaridek, "Inson xayolidagi narsa uni o'z orqasidan yetaklaydi. Masalan, bog' xayoli boqqa, do'kon xayoli do'konga olib boradi" [5,20]. Inson xayoli, fikri, tafakkuri esa til, so'z bilan chambarchas bog'liqidir. O'zbek xalq maqollarida aytiganidek, "Sevdirgan ham til, Bezdirgan ham til" [7, 27]. Bu fikrni mavzumiz bilan bog'laydigan bo'lsak, odamlar ongida vatanga muhabbat ham, nafrat ham til, so'z vositasida amalga oshadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, tinchlik sharoitida ham, davlat boshqaruvi, hatto urush sharoitida ham qo'shinni boshqarishda, askarlarni vatanni asrab qolishga da'vat etishda ham notiqlik san'atining alohida o'rni bo'lganligiga guvoh bo'lamic. Chunki ko'zlangan maqsad strategiya bo'lsa, uni amalga oshirish yo'llari – bu, taktikadir. Demak, har qanday strategiyaning ta'sirchan mexanizmi – bu, til taktikasidir.

Harbiy notiqlik mohiyat e'tibori bilan jangovarlikni, hitob va da'vatni anglatadi. Shuning uchun ham mashhur Rim notig'i Mark Tulliy Sitseron "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda yoki notiq bo'lish kerak" degan fikrni beziz ilgari surmagan. U ko'rib kuzatgani va anglab yetganidan so'nggina shu fikrga kelgani aniq. Shu jihatdan olib qaraganda, notiqlik va vatangan muhabbat bir-biri bilan chambarchas bog'liqir. Har qanday g'alabani ta'minlash ostida bevosita notiqlik mahorati turadi.

Aynan shuning uchun ham, Sohibqiron Amir Temur jang san'atida, boshqaruvi tizimida notiqlikning alohida o'rnni e'tirof etgani va amal qilgani beziz emas. Jangda g'alabaning garovi o'ziga ishonch bilan bog'liq bo'lgani kabi so'zga ham bevosita bog'liq. Qo'mondon qo'shiniga o'z nutqi orqali ishonch ruhini bersa, u dadil harakat qiladi va zafar quchadi, aks holda, mag'lubiyatga uchraydi. Shuning uchun ham notiqlikning asl mohiyati ishontirish orqali ta'sirlantirish san'atidir. Zero, kitob tokchalarimizdangina emas, qalblarimizdan munosib o'rın olgan "Temur tuzuklari"ni nutq san'atining noyob namunasi deyishimiz ham beziz emas.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Keyingi avlod temuriyzodalardan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur sohibqiron Amir Temurning jang san'ati va boshqaruvi mahoratidan tashqari, o'z so'zi, nutqi va voizlik mahoratiga ega bo'lganini ham eshitgan, bilgan. "...har kim o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini bilib o'zi qilsin, ya'ni raiyat podshosi aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytadi, o'zi qiladi..." degan "Temur tuzuklari"dagi bitiklar ham o'sha davrda notiqlik san'atining rutbasi yuqori bo'lganini bildiradi.

"Yaxshi nutq egasi – uquvli, qat'iyatli, o'ziga ishongan bo'lishi darkor, chunki va'zxonlik – kuch. Voiz bo'lish uchun, so'zning qudrati va sehrini egallash lozim. Amir Temurning qudrati, avvalo, uning donishmand fikrlarida, maslahatli kengashlardagi so'zlangan nutqlarida namoyondir, chunki XIV asrda markazlashgan feodal davlatni tuzish, ulkan qo'shingga sarkardalik qilish uchun har taraflama bilimdon, qat'iyatli, voiz-shaxs bo'lish lozim edi" [9].

Ushbu sifatlarni hech ikkilanmasdan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ham aytish mumkin. Hind xalqining buyuk davlat arboblariidan Javoharlal Neruning ushbu mulohazasi ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi: "Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi..." [9].

Mard va tadbirkor, san'atni sevgan kishigina qat'iy iroda, o'z so'ziga, fikriga ega inson bo'lishi tayin. Jonli manzaralar yaratuvchi, da'vatkor kuchga ega so'zning o'rni katta. To'p-u zambaraklar, behisob qo'shin eplay olmagan ishni oddiy so'z bajara olganiga tarix shohid.

Zahiriddin Muhammad Boburning nutqiy mahorati haqida mufassal ma'lumotni shoh va shoirning qizi Gulbadanbeginning "Humoyunnoma" asaridan olish mumkin. Unda ma'lum qilipnishicha, 1527- yili Boburning Hindistonda Rano Sango bilan jangi oldidan qo'shinlari orasidagi vaziyat aziyatga sabab bo'ladi. Boshi qovushmagan jangchilar orasida ixtilof va tarqoqlik boshlanadi. Shunda Bobur lashkarga qarata jonli, ta'sirchan nutq irod qiladi. Gulbadanbeginning "Bunga majlisdagilarning hammasi rozi bo'lishib...", tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar..." degan dalilni keltiradi: "Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechkusidur, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yaxshiroq... Tangri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid va o'ldurg'on g'oziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qatoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrimag'unicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrimag'ay..." Boburning ushbu otashin, jangovar nutqidan so'ng barcha askarlar yakdil holda, jam bo'lib, jingga kirishgan [9].

## PEDAGOGIKA

Jang oldidan lashkarni ruhlantirish, g'alabaga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otish tajribali qo'mondonlarning faoliyatida sinashta bo'lgan. Napoleon Bonapartga jangga kirishishga tayyor turgan qo'shinga qarata shunday deyishi odat bo'lgan. "Jangda o'lishni hamma eplaydi. Mard va jasur jangchilargina tirik qoladi. Menga o'ligingiz emas, tiricingiz kerak. Shunday ekan, barchangizga o'immaslikni buyuraman, olg'a!" deya xitob qilarkan. [9].

Allomalar tomonidan bildirilgan quyidagi purhikmat jumlalarda insonning so'zi – uning qalbi, ko'zgusi ekanligi ta'qidlangan:

"Insonni tanimoqchi bo'lsang, uni gapga sol: so'zidan uning kimligini bilib olasan" (Jaloliddi Rumiy) [4, 53].

"Fahm ayla kishi holin so'z demagidin –  
Kim, berdi xabar hadisi ko'nglidagidin" (Alisher Navoiy) [3, 161].  
"Co'zingkim hizr suyidin nishondur,  
Vale ul suv kibi mendin nihondur.  
Har vaqtke ko'rgasen mening so'zumni,  
So'zumni uqub anglagaysen o'zumni." (Zahiriddin Muhammad Bobur) [9].

## XULOSA

Bildirilgan fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, notiqlik va vatanparvarlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi tinch va osuda zamonimizda ham yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bu qudratli quroldan ma'naviyat va ma'rifat sohasining hamma vakillari, ayniqsa, pedagoglar samarali foydalanishlari kerak. Buning uchun esa, avvalo, o'zini zamonamizning har bir ziylisi bu noyob san'atni har tomonlama puxta egallagan bo'lishi talab etiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аҳмедова Ҳ.Т. Нотиқлик санъати манбалари ва ўқувчилар нутқини ривожлантириш омиллари. – Тошкент: Bayoz, 2015.
2. Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Навоий А. Ҳикматлар. – Тошкент: Шарқ, 20014.
4. Румий Ж. Ичиндаги ичиндадур. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
5. Румий Ж. Ҳикматлар. – Тошкент: Шарқ, 2008.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, учинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007.
7. Ўзбек халқ мақоллари. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
8. Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
9. <https://xabar.uz/jamiyat/mirzo-boburning-harbiy-notiqlik>